

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**XO‘JALIK MUDIRI YO‘NALISHI BO‘YICHA LAVOZIMGA ISHGA
QABUL QILISH SINOVI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

XO‘JALIK MUDIRI YO‘NALISHI BO‘YICHA LAVOZIMGA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi davlat ta’lim tashkilotlarida xo‘jalik mudirlarini tanlov asosida ishga qabul qilish jarayoni uchun test sinovlarida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, topshiriqlar turi va shakli, ularni baholash mezonlari hamda test sinovlarini o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Spetsifikatsiyaga ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar, yangi pedagogik yondashuvlar hamda vazirlikning tegishli buyruqlariga muvofiq, belgilangan tartibda unga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi nomzodlarning xo‘jalik mudiri lavozimida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini xolis, ishonchli va shaffof baholashdan iborat.

Test topshiriqlari nomzodlarning xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda moddiy-texnika bazasini boshqarish, texnik va kommunal ekspluatatsiya, xavfsizlik va sanitariya, huquqiy va axloqiy kompetensiyalari, raqamli savodxonlik yo‘nalishlardagi layoqatini, kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan bilimlarni tanish va nostandart vaziyatlarda qo‘llay olish, muammoli holatlarni tahlil qilish hamda samarali yechim topish qobiliyatini aniqlashga yo‘naltiriladi.

II. Me’yoriy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim tashkilotlariga xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” hamda vazirlikning 2026-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug‘i.

III. Baholash tartibi va shartlari

Kadrlar menejeri yo‘nalishi bo‘yicha nomzodlarga 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt ajratiladi. Test topshiriqlarida quyidagi yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi: Y1: Yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan topshiriqlar; Y2: Moslashtirishni talab qiladigan topshiriqlar; Y3: Ketma-ketlikni talab qiladigan topshiriqlar.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Xo‘jalik faoliyatini tashkil etish	- Xo‘jalik mudirining lavozim yo‘riqnomasi, huquq va majburiyatlarini hamda ichki mehnat tartibi qoidalarini; - Moddiy-texnika ta’minoti tizimini, ombor xo‘jaligini yuritish tartibi va inventarizatsiya qoidalarini - Xo‘jalik ishchilari mehnatini tashkil etish, ish vaqtini hisobga olish (tabel) va ularning vazifalarini taqsimlashni bilishi. - Xo‘jalik faoliyatini normativ hujjatlar talablari asosida rejalashtirish va muvofiqlashtirishni qo‘llay olishi; - Xo‘jalik xarajatlarini oqilona rejalashtirish, tovar-moddiy boyliklarni kirim-chiqim qilish va ombor hisobini to‘g‘ri yuritish; - Texnik xodimlar va ishchilarga vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, ularning ish vaqtini nazorat qilish va bajarilgan ishlarni baholay olishi. - Xo‘jalik faoliyatiga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yuzaga keladigan xatarlarni tahlil qila olishi, resurslarni tejash va ish jarayonini optimallashtirish bo‘yicha tizimli xulosalar chiqarishi hamda muammoli vaziyatlarda normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan eng maqbul va asosli qarorlarni mulohaza qila olishi.	6

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
2. Moddiy- texnika bazasini boshqarish	- Davlat mulkini hisobga olishning zamonaviy usullarini, “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi qonunchilikni, inventarizatsiya o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomalarni hamda moddiy javobgarlik bilan bog‘liq huquqiy me‘yorlarni aniq bilishi. - Har bir inventar birligini nazorat qila olishi, ta‘minot jarayonida shaffoflikni ta‘minlashi, ombor xo‘jaligini tartibga solishi hamda eskirgan va yaroqsiz bo‘lib qolgan vositalarni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish hujjatlarini to‘g‘ri shakllantira olishi; - Moddiy-texnika bazasining holati bo‘yicha tizimli tahlil o‘tkazib, resurslarning kamchiligi yoki ortiqchaligini aniqlay olishi, xo‘jalik xarajatlarini byudjet hisob-kitoblariga moslab optimallashtirishi hamda ta‘lim muassasasi mol-mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha strategik mulohaza yurita olishi.	7
3. Texnik va kommunal ekspluatatsi ya	- Ta‘lim tashkiloti binosi va inshootlarining texnik xavfsizlik standartlarini, kommunal tizimlarning texnik pasportlarini hamda sanitariya-epidemiologik talablarni (SanQvaN) mukammal bilishi. - Bino va inshootlarning texnik holatini doimiy nazorat qilishi, kommunal resurslar (elektr, gaz, suv) hisobini yuritib, ulardan oqilona foydalanishni ta‘minlashi, shuningdek, kuz-qish mavsumiga bino va isitish tizimini to‘liq tayyor holga keltira olishi; - Kommunal tizimlarning uzluksiz ishlashini ta‘minlash, texnik sozligini nazorat qilish va avariya holatlarda tezkor chora ko‘ra olishi. - Obodonlashtirish va ta‘mirlash ishlari bo‘yicha byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash; - Binoning texnik eskirish darajasini baholash va navbatdagi ta‘mirlash ishlarini rejalashtirishda strategik ustuvorliklarni mulohaza qila olishi; - Mavsumiy xavflarni (sovuq tushishi, yog‘ingarchilik) oldindan prognoz qilib, ta‘lim muassasasini uzluksiz faoliyatga tayyorlashni mulohaza qila olishi.	6

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
4. Xavfsizlik talablari	- Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat standartlarini, yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonunni va umumta'lim maktablari uchun belgilangan sanitariya-epidemiologik talablarni (0341-16-son SanQvaN) bilishi. - Yong'in xavfsizligi talablari, yong'inga qarshi vositalar (o'chirgichlar) va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlarini bilishi. - Yong'in o'chirish vositalarining texnik holatini muntazam nazorat qilishi, texnik xodimlar uchun xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarni (instruxtaj) o'z vaqtida o'tkazishi hamda favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya ishlarini tashkil eta olish; -Binolar, o'quv xonalari va oshxonada sanitariya qoidalariga rioya etilishini ta'minlash hamda dezinfektsiya ishlarini tashkil etish; - evakuatsiya rejalarini amaliyotga joriy eta olishi. -Tashkilotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfsizlik xatarlarini (elektr tizimidagi nosozliklar, yong'in xavfi, sanitariya buzilishlari) oldindan prognoz qila olishi, ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishi hamda xodimlarning xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan asosli qarorlar qabul qila olishi.	8
5. Huquqiy savodxonlik va kasbiy etika	- Xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani, davlat mulkini hisobga olish va undan foydalanish tartibini, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun va kasbiy odob-axloq qoidalarini mukammal bilishi. - O'z lavozim yo'riqnomasiga muvofiq qonuniy hujjatlarni rasmiylashtirishi, davlat mulkining saqlanishini ta'minlashi, jamoada xizmat intizomini o'rnatishi hamda har qanday korrupsion xavflarga qarshi huquqiy va axloqiy me'yorlarni qo'llay olishi. - Mulkdan foydalanishda huquqiy normalarni to'g'ri tatbiq eta olishi, jamoada sog'lom muloqot muhitini qaror toptirishi hamda kasbiy vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuvi kabi axloqiy xatarlarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini mulohaza qila olishi.	7

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
6. Raqamli savodxonlik va AKT	- MS Word, Excel, PowerPoint dasturlarining imkoniyatlarini hamda AKT vositalarining ishlash mexanizmlarini; - Kiberxavfsizlik qoidalari, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablari va kibergigiyena asoslarini bilishi. - Elektron platformalarda ma'lumotlar bazasini sifatli yuritishi, hisobot va tahliliy jadvallarni AKT vositalaridan foydalangan holda tayyorlashi hamda kiberxavfsizlik sozlamalarini amaliy faoliyatida qo'llay olishi. - Raqamli ma'lumotlar asosida muassasaning xo'jalik faoliyati yuzasidan prognozlar tayyorlay olishi, axborot xavfsizligi bilan bog'liq xatarlarni baholay olishi va raqamli muhitni optimallashtirishga doir boshqaruv qarorlarini mulohaza qila olishi.	6
	Jami	40

V.Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Yo'nalishga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 2,5 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi. O'tish bali: 60 ball va undan yuqori. Test topshiriqlarini bajarish uchun 60 daqiqa vaqt ajratiladi.

V. Imtihon tartibi

Nazorat: Test jarayonlarini onlayn masofadan kuzatib borish maqsadida video kuzatuv tizimlari ishga tushiriladi.

Taqiqlangan holatlar: Test jarayonlari bir vaqtda o'tkaziladi hamda nomzodlar test o'tkaziladigan joyga belgilangan vaqtdan kechiksa, sinovga qo'yilmaydi.

Imtihon vaqtida mobil telefon va boshqa texnik vositalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Foydalanishga tavsiya etiladigan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim muassasalari bino va inshootlaridan foydalanish, ularni saqlash, joriy ta'mirlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda kommunal xizmatlarni tashkil etishga oid amaldagi qarorlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan: 4-ilova: Umumiy o'rta ta'lim muassasasining namunaviy odob-axloq qoidalari; 5-ilova: Umumiy o'rta ta'lim muassasasining namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalari; 6-ilova: Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlarining lavozim yo'riqnomalari.
9. Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining "Umumta'lim maktablarida ta'lim sharoitlari va tashkil etilishiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar (0341-16-son СанҚбаН)ga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori (22-son, 15.09.2023).
10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)da e'lon qilingan ta'lim, mehnat, xo'jalik faoliyati, davlat mulkini boshqarish, mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.

VIII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan xo'jalik faoliyatini tashkil etish, moddiy-texnika ta'minoti, moddiy boyliklarni boshqarish,

mehnatni muhofaza qilish, yong'in va sanitariya xavfsizligi, kasbiy etika hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan moslashtiriladi. Biroq test topshiriqlari tavsiya etilgan manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash, xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini baholashga qaratiladi.